

## Halima Xudoyberdiyeva She'rlarida Vatan Mavzusi

Rahmonova Dilnura<sup>1</sup>

**Annotatsiya:** She'rlarni tahlil qilish orqali shoiraning butun bir ruhiyati, maqsadi aniq ko'rsatib beriladi va Vatanni himoya qalqoni ila sevish kerakligi satr ma'nolaridan ma'lum ekanligi ko'rsatiladi.

**Kalit so'zlar:** Ona Vatan tushunchasi, jonfidolik, jasorat, satrlar, shoirning o'zi, she'rning ruhiyati.

She'rning muqaddasligi shundaki, u Vatan va Iymon tushunchalari bilan g'oyatda egizdir. She'r, men ayni Sharq she'riyatini nazarda tutyapman, shuning uchun muqaddaski, uning bir vazni ilohiy, bir vazni insoniydir; uning bir satri osmoniy, bir satri zaminiydir. Bizning she'rimiz shuning uchun bashariyat nazmining gultoji hisoblanadi.<sup>2</sup>

Shoirilar borki, ularning har biri dastavval Vatanni kuylaydi, she'rlarida ona diyoriga sadoqat, borliqqa bo'lgan mehr-muhabbat, Vatanning ostonasi hisoblanmish oilaga ehtirom jo'sh uradi. Ana shunday Vatanni baralla madh etgan va o'zining uslubi bilan o'zbek adabiyotidan munosib o'rin olgan shoiralarimizdan biri Halima Xudoyberdiyevadir. She'rlariga jon-jahdini bag'ishlab, satrlarini nazm olamining gultoji darajasiga olib chiqqan shoiraning ushbu satrlari fikrimizning yaqqol misolidir:

Qon aslan yorug'lik. Yorug'lan, tiz cho'k.

Asl mard Vatanga tiz cho'kib o'tar.

Qancha qoning bo'lsa, Vatan uchun to'k,

Qancha shoning bo'lsa– Vatanni ko'tar!

Kindik qon to'kilgan zamin, onalar kuylayotgan alla, ulug' xalq, dasturxon atrofidagi oila, butun umrini ilm-ma'rifatga bag'ishlagan olim-u ulamolar, go'zal tabiat kabi tushunchalarni o'z qamroviga olgan «Ona Vatan» uchun kezi kelganda jonfido qilish shart, deydi shoirimiz. Kishining o'z mehnati, ilmi, obro'-e'tibori yetuk darajaga ko'tarsa, sen o'sha yetukliging, shoning ila o'z yurtning bayrog'ini ko'tar deya o'z xalqiga «Da'vat» she'rida Vatan tuyg'usini jo qilgan.

Shuningdek, Halima Xudoyberdiyevaning «Unutmang» she'ridagi vatanparvar o'zbek qizining mardonavor qiyofasi badiiy gavdalantiriladi:

Yelkam xalqim yelkasiga tegib turmog'i uchun,

Boshim xalqim ko'lkasiga egib turmog'im uchun,

Unga qarshi nima kelsa, yengib turmog'im uchun,

Mendan qay ish lozim bo'lsa, barchasiga tayyorman!

Yelkasiga xalqining yelkasi tegib turishini istagan shoira, demak, xalqi bilan bir tan-u bir jon, yaxshi-yu yomon kunlarda ham birga bo'lishni xohlaydi. Shuni aytish joizki, Vatanni sevgan kishi uchun faqat sevish yetmaydi, rivojiga hissa qo'shib ardoqlash, har qanday vaziyatda himoyalab, o'zining faxr qalqoni bilan neki bo'lsa ham tayyor turmoq har bir kishi uchun ham qarz, ham farzdir.

Halima Xudoyberdiyevaning har bir she'ridagi jonfidolik, vatanparvarlik va jasorat kabi tuyg'ular saf tortgan holda xuddiki jonlanib, birdamlikka, mehr-muhabbatli bo'lishga chaqiradi. So'zlari qalblarni qaynatayotgan shoiraning she'rini o'qiy turib, ulug' ajdodlarimiz Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Uvaysiy tuygan iftixorni tuya olishimiz mumkin. Beixtiyor sizni shu oqim sari yetaklaydi.

«Jonfidolik Halima Xudoyberdiyeva she'rlaridagi asosiy nuqtalardan biridir. Bu eng oliy maqsad yo'lidagi fidoyilik», – deydi O'zbekiston xalq shoiri Abdulla Oripov.<sup>3</sup>

Ibrohim G'afurov «She'r bu shoirning o'zi» va yana bir shunga o'xshash: «She'rlarda shoirning ma'lum bir shaxsiyati aks etadi» degan jumladan anglash mumkinki, Halima Xudoyberdiyevaning she'rlari bu uning o'zidir.

Odatda, she'r izohlanmaydi, she'r anglanadi deganlaridek, zabardast shoirimiz zabardast satrlari bilan qalb tizginlarini yuraklarga yetkazib bera oldi. Zero, yurakdan chiqqani yuraklarga yetib boradi.

<sup>1</sup> Urganch davlat universiteti Filologiya fakulteti o'zbek tili ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

<sup>2</sup> Xudoyberdiyeva Halima. Saylanma. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2000

<sup>3</sup> Xudoyberdiyeva Halima. Saylanma. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2000

«O‘zbek she‘riyati lirik qahramoni turli davrlarda turlicha kayfiyat, ruhiyat sohibi sifatida goh kurashchanlik, gohida moslanuvchanlik xarakteri bilan namoyon bo‘lgan va adabiy jarayonda rivojlanish, ba‘zan esa turg‘unlikning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan».<sup>4</sup>

Halima Xudoyberdiyeva esa qanday zamon va qanday vaziyat bo‘lishidan qat‘iy nazar ichidagini boricha yoza oldi. Go‘yoki bir joyda to‘xtab qolgan insonni turtib, unga nima qilish kerakligini uqtirdi. Shoirilar zamonga moslashmaydi, zamon shoirlarga moslashadi g‘oyasini ilgari surdi.

Bu yer kimning, bu ko‘k kimning

Egasi bor har o‘t, chimning,

O‘z yerida o‘zbeginning

O‘zi qolgan Vatandir bu!

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, Halima Xudoyberdiyeva qay usulda ijod etishidan qat‘iy nazar, maqsad bir– Vatanni madh qilish, xalqni birlashtirish va birgalikda sevib ardoqlash. Shu jumladan, shoiraning «Vatandir bu» she‘ridagi o‘z yerida o‘zi qolgan o‘zbekning avlodi ekanmiz, bundan buyog‘iga ham Vatanning sodiq farzandi bo‘lish biz, yoshlarning vazifasi hamda burchidir.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2000
2. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. Sharq nashriyoti. Toshkent. 2000
3. Jumaboyeva J. XX asr o‘zbek she‘riyatida psixologik tasvir mahorati. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2004
4. Mirvaliyev S, Shokirova R. O‘zbek adiblari. G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot san‘at nashriyoti. 2016
5. Shukurov E. Onaelim, ildizingdan kelgan xabarman yoxud yarador arslon hayqirig‘i

---

<sup>4</sup> Jumaboyeva Jumagul. XX asr o‘zbek she‘riyatida psixologik tasvir mahorati. Toshkent O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "Fan" nashriyoti. 2004